



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
_____ *ning*

20__-20__-o'quv yili 3-sinf
matematika fanidan II chorak uchun

DARS

ISHLANMALARI

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 3-sinf matematika fanidan II chorak uchun
taqvim mavzu rejasi

| № | O‘tiladigan mavzular rejasi | Nazariy soat | Dars o‘tkazish muddati | Dars o‘tkazilgan sana |
|-----|---|--------------|------------------------|-----------------------|
| 1. | Yig‘indini songa bo‘lish | 1 | | |
| 2. | Yig‘indini songa bo‘lish / Yig‘indini songa bo‘lish | 1 | | |
| 3. | Ikki xonali sonni bir xonali songa bo‘lish | 1 | | |
| 4. | Qoldiq | 1 | | |
| 5. | Qoldiq bo‘lish | 1 | | |
| 6. | Burchakli bo‘lish | 1 | | |
| 7. | Burchakli bo‘lish / Burchakli bo‘lish | 1 | | |
| 8. | Burchakli bo‘lish | 1 | | |
| 9. | Ko‘p xonali sonlarni qoldikli bo‘lish | 1 | | |
| 10. | Ko‘p xonali sonlarni qoldikli bo‘lish | 1 | | |
| 11. | O‘rtasida nol raqami bor sonlarni bo‘lish. | 1 | | |
| 12. | Nol bilan tugagan sonlarni bo‘lish / Nol bilan tugagan sonlarni bo‘lish | 1 | | |
| 13. | Nol bilan tugagan sonlarni bo‘lish / Nol bilan tugagan sonlarni bo‘lish | 1 | | |
| 14. | Yaxlit sonlarni bo‘lish | 1 | | |
| 15. | Yaxlit sonlarni bo‘lish | 1 | | |
| 16. | Bo‘lishning geometrik ma’nosi | 1 | | |
| 17. | 3-nazorat ishi | 1 | | |
| 18. | Loyiha | 1 | | |
| 19. | Ikki xonali sonni ikki xonali songa burchakli bo‘lish | 1 | | |
| 20. | Ikki xonali songa burchakli bo‘lish | 1 | | |
| 21. | Uch xonali songa burchakli bo‘lish | 1 | | |
| 22. | Sonlarni bo‘lish | 1 | | |
| 23. | Bo‘luvchilar va karrali | 1 | | |
| 24. | Amaliy topshiriqlar | 1 | | |
| 25. | Amaliy topshiriqlar | 1 | | |

| | | | | |
|-----|---------------------------------------|---|--|--|
| 26. | Kesmani teng bo'laklarga bo'lish | 1 | | |
| 27. | Kesmani teng bo'laklarga bo'lish | 1 | | |
| 28. | To'g'ri to'rtburchak perimetri | 1 | | |
| 29. | To'g'ri to'rtburchak perimetri | 1 | | |
| 30. | Muntazam shaklning perimetri | 1 | | |
| 31. | Nostandart shaklning perimetri | 1 | | |
| 32. | Yuzaning xossalari | 1 | | |
| 33. | Yuzani topishning nostandart usullari | 1 | | |
| 34. | Nostandart shakllarning yuzi | 1 | | |
| 35. | 4-nazorat ishi | 1 | | |

| | | | | |
|--------------|--|--|--|--|
| Sana: | | | | |
| Sinf: | | | | |

Mavzu: Yig'indini songa bo'lish

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad- o'quvchilarga Yig'indini songa bo'lish, katta sonlarga ko'paytirish va bo'lish qoidalarini, har qanday sonni bir-biriga bo'lish va ko'paytirishni o'rgatish. Nima uchun ba'zi sonlarni ba'zi sonlarga bo'lib bo'lmasligi, qoldiq nimaligi haqida tushuncha berish.

b) tarbiyaviy maqsad- tabiiy resurslar bilan tanishtirish, ona tabiatning boyligini asrashni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad- turli murakkab shakllarning perimetrini, maydonini topishni o'rgatish. Turli kasblarni eslatib, matematika ularga qanday yordam berishini tushuntirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'rganilgan atamalarning ma'nosini tushunib, to'g'ri o'qiy olish;

so'z va gaplarni bog'lagan holda o'z fikrini aniq va ravshan ifodalay olish;

sodda fikrlarni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;

matematikaga oid audiomatni tinglab, videotasvirlarni ko'rib tushunish, tegishli munosabat bildira olish;

matematik matn ma'nosini qayta so'zlab bera olish, matematik qoidalarni yoddan ifodali ayta olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

boshqalar fikrini tinglab, tushuna olish, agar bu fikrni noto'g'ri deb hisoblasa, o'z fikrini himoya qila olish;

atrofdagilar bilan o'zaro muloqot chog'ida odob-axloq qoidalariga rioya qila olish va guruhda ishlay olish;

muammo va tushunmovchiliklar ro'y bergan paytlarda o'zini tutishi to'g'risida to'g'ri qaror qabul qila olish;

jamoada turli rollarni ijro eta olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, testlar, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxiridada e'lon qilinadi.

Darsning borishi:


| № | Bo'limlar | Vahti |
|-------------|---|------------------|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..

III. Yangi mavzu bayoni:

1. O'qituvchi zanjir bo'yicha amallarni bajarishni buyurgan edi, Akmalda 16 chiqdi. Akmal amallarni to'g'ri bajardimi?



2. O'qituvchi sinfdagi uchta qatorga misollar yozilgan rangli varaqachalarni teng tarqatdi. Hammasi bo'lib (TIJta ko'k, 18 ta sariq, 6 ta yashil varaqacha bor edi. Har bir qatordagi o'quvchilar nechtadan varaqacha olgan?


Aziza masalani bunday yechibdi:

$(12 + 18 + 6) : 3.$

Madina esa bunday yechibdi:

$12 : 3 + 18 : 3 + 6 : 3.$

Kim to'g'ri yechgan?



3. Misollarni ikki xil usul bilan yechib ko'ring. Har bir misolda qaysi usul osonroq ekan?

$$(30 + 40) : 10 \quad (60 + 8) : 2 \quad (28 + 56) : 7$$

4. Misollarni o'zingizga qulay usulda yeching. Nimani sezdingiz?

Xulosa chiqaring. Bu yerda qaysi varaqacha ortiqcha ekan?

Nima uchun?

| | | | |
|---|--|-------------------------------------|---|
| $\frac{\text{O'qituvchi}}{(42 + 36) : 6}$ | $\frac{\text{Pedagog}}{(54 + 18) : 9}$ | $\frac{\text{Olim}}{(24 + 21) : 5}$ | $\frac{\text{O'qituvchi}}{(30 + 12) : 6}$ |
|---|--|-------------------------------------|---|

5. Ifoda tuzing va uni qulay usulda hisoblang.

a) Sinfda 14 ta qiz bola, 16 ta o'g'il bola bor. Ingliz tilini o'rganish uchun sinf ikkita teng guruhga bo'lindi. Har bir guruhda nechtadan o'quvchi bor?

b) Maktabdagi tanlovda 12 ta katta sinf va 8 ta o'rta sinf qatnashadi. Saralash bosqichida har bir sinfdan 4 tadan jamoa qatnashdi. Nechta saralash o'yinlari o'ynalgan?

6. Madina, Aziza va Umidada har xil rangdagi qisqichlar bor. Har bir qizda har bir rangdan nechtadan qisqich borligini sanashga yordam bering.

Qizlar qisqichlarni teng bo'lib olishdi. Har bir qizga nechtadan qisqich to'g'ri kelgan?



9. Qulay usulda hisoblang. Qiymatlarni kamayish tartibida qo'yib chiqing. Qadimgi Yunonistonda arifmetika o'qituvchisi qanday nomlanganini toping.

R $(40 + 30) : 10$

TO $(800 + 600) : 100$

KA $(300 + 200) : 10$

KU $(120 + 16) : 4$

L $(120 + 21) : 3$

LA $(40 + 24) : 2$

10. Kompleks masala.

a) Jadvalga qarab, maktabda jami necha sinf borligini aniqlang.

| Boshlang'ich sinflar (1–4 sinflar) | O'rta sinflar (5–9 sinflar) | Katta sinflar (10–11 sinflar) |
|---------------------------------------|--------------------------------|----------------------------------|
| 24 ta sinf | 16 ta sinf | 8 ta sinf |

b) Har bir sinfdan 2 tadan ingliz tili guruhi bor. Maktabda jami necha ingliz tili guruhi bor?

d) Bitta o'qituvchi 8 ta guruhga dars o'ta olsa, maktabda necha ingliz tili o'qituvchisi ishlashi kerak?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkazish orqali bilimlarini mustahkamlash.

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

| | | | | |
|--------------|--|--|--|--|
| Sana: | | | | |
| Sinf: | | | | |

Mavzu: Ikki xonali sonni bir xonali songa bo'lish

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad- o'quvchilarga Ikki xonali sonni bir xonali songa bolish, katta sonlarga ko'paytirish va bo'lish qoidalarini, har qanday sonni bir-biriga bo'lish va ko'paytirishni o'rgatish. Nima uchun ba'zi sonlarni ba'zi sonlarga bo'lib bo'lmasligi, qoldiq nimaligi haqida tushuncha berish.

b) tarbiyaviy maqsad- tabiiy resurslar bilan tanishtirish, ona tabiatning boyligini asrashni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad- turli murakkab shakllarning perimetrini, maydonini topishni o'rgatish. Turli kasblarni eslatib, matematika ularga qanday yordam berishini tushuntirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

tavsiya etilgan media manbalardan axborotni izlab topa olish, zarur bo'lsa uni boshqa ko'rinishlarga (matn, jadval, sxema va h.k.) o'tkaza olish;

axborotlarni statistik ma'lumotlarning ko'rinishlarning bir turidan (ustunli, chiziqli va doiraviy diagrammalar, jadvallar, chizmalar) boshqa ko'rinishga o'tkaza olish;

uchta sonning o'rta arifmetigini topish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish

hamda foydalanish kompetensiyasi:

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza oladi;

kundalik faoliyatida turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy oladi;

murakkab bo'lmagan hisoblashlarda, o'rganilgan tenglamani yechishda, o'rganilgan turdagi yassi va fazoviy geometrik figuralarni tasvirlashda hisoblash va axborot-texnologiyalar vositalardan foydalana oladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, testlar, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxiridada e'lon qilinadi.

Darsning borishi:


| № | Bo'limlar | Vahti |
|-------------|---|------------------|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..

III. Yangi mavzu bayoni:

1. Dorixonachi dorilarni peshtaxtaga bir necha qator qilib taxlayapti. Har bir qatorda nechta dori qutisi turibdi?



6 qatorda
42 quti



3 qatorda
18 quti



5 qatorda
75 quti

Qaysi qator boshqalaridan ajralib turibdi?

2. Hisoblashni davom ettiring. Nimani sezdingiz?

a) $68 : 2 = (60 + 8) : 2$

b) $78 : 3 = (60 + 18) : 3$

d) $145 : 5 = (150 - 5) : 5$

e) $126 : 7 = (140 - 14) : 7$

3. Bo'linmani yig'indi yoki ayirma ko'rinishiga keltirib hisoblang.

a) $44 : 4$ b) $63 : 3$ d) $72 : 6$ e) $95 : 5$

4. Ifodani yozing va hisoblang.

a) 7 quti dori uchun 91 ming so'm to'landi. Bitta quti qancha turadi?


b) 52 ta "Tez yordam" mashinasini 4 ta stansiyaga teng bo'lishdi. Har bir stansiyaga nechtdan mashina berilgan?

d) 84 metrlik dokani qirqib, 6 metrlik bint tayyorlandi.

Bitta dokadan nechta bint chiqar ekan?

5. Kasalxona uchun 135 ta termometr sotib olindi. Termometrlar bir xil qutilarga bir necha donadan solingan ekan. Birinchi bo'limga 2 quti, ikkinchi bo'limga 3 quti, uchinchisiga esa 4 quti yuborildi. Har bir qutida nechtdan termometr bor?

Yechish uchun quyidagi chizmadan foydalaning.



6. Tenglamalarni yeching. Javobini tekshiring.

$5 \cdot x = 225$ $749 : y = 7$ $z : 8 = 56$

7. Hisoblang. Dori tayyorlovchi mutaxassisni nima deb atash mumkinligini toping.

A $70 \cdot 9 + 195$

E $25 \cdot 8 - 163$

S $69 \cdot 8 - 128$

M $57 \cdot 8 + 229$

R $600 : 2 + 127$

V $1800 : 3 - 144$

F $5600 : 80 + 830$

T $8000 : 8 - 210$

| | | | | | | | | | |
|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|----|-----|-----|
| 900 | 825 | 427 | 685 | 825 | 790 | 424 | 37 | 456 | 790 |
|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|----|-----|-----|

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkazish orqali bilimlarini mustahkamlash.

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: **Zokirjon.com**

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

+99890-530-00-68 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan nza4567 izlab telegramga murojaat qilishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

Hujjat word variant doc formatda beriladi.

61 listdan iborat II chorak 3-sinf matematika fanidan konspektni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.



Narxi: 15 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**